

Maktabda kitoblar ko'rgazmasi

Osiyo Usmonova



- Ko'rgazma haqida nimalar bilasiz?
- Maktabingizda kitoblar ko'rgazmasi tez-tez o'tkazib turiladimi?



O'qing.

Maktabda kitoblar ko'rgazmasi tez-tez o'tkazib turiladi. Foyeda* bolalar qiziqarli kitoblar sotib olishlari mumkin. Kunlardan bir kun Jasur darsdan so'ng onasini kutayotib, ko'rgazma bo'layotgan joydagi o'rindiqqa o'tirdi. Tashqarida yog'ayotgan yomg'ir tovushi Jasurni asta allalayotgan edi. Birdan bolaning ko'z oldida Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abdulla Avloniy va Zulfiya paydo bo'lishdi...

Jasur ko'zlariga ishonmay, hayratdan lol qoldi.



– Men qayerdaman? O‘tmishga tushib qoldimmi?
Nega aynan men buyuk insonlarni uchratdim?

Bola hayratlanib, o‘rnidan turdi. Ular esa Jasurning yoniga kelib, shunday deyishdi:

– Bolakay, yaxshi o‘qigin! Shunda sen ko‘p narsalarni bilib olasan! Vatanningni sev va kattalarni hurmat qil!

Jasur ularga kitoblardan yangi va qiziqarli ma’lumotlarni bilib olganini aytmqchi bo‘ldi.

Biroq, birdan onasining ovozini eshitib qoldi:

– Jasur, o‘g‘lim, charchadingmi? Yur, uyga ketamiz!
Jasur ilk bor onasi ertaroq kelganidan va tushini oxirigacha ko‘ra olmaganidan afsuslandi.



foye – binoning kirish qismidagi katta xona



1. Nima uchun maktablarda kitob ko‘rgazmalari o‘tkaziladi?
2. Hikoyaning bosh qahramoni kim?
3. Nima uchun u uxlab qoldi?
4. Buyuk shoir va yozuvchilarimiz Jasurga qanday nasihat qilishdi?
5. Bolakay nimadan afsuslandi?



Hikoyani gapirib berishga tayyorlaning.

